

## MILLIY TARBIYA AN'ANALARI ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

**Xasanova Marg'uba Safar qizi**

*Xalqaro Nordik Universiteti Psixologiya va Maktabgachaga ta'lim kafedrası  
katta o'qituvchisi*

ORCID ID: 0009-0007-3407-1439

**Kuchkarova Muyassar**

*Xalqaro Nordik Universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalish 3-bosqich  
talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada milliy tarbiya an'analari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishning usullari va pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Milliy urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi, buyuk ajdodlar merosi, oila va jamiyat qadriyatlarining tarbiya jarayonidagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, bolalarda halollik, mehr-oqibat, odoblilik, vatanparvarlik kabi fazilatlarni singdirishda innovatsion pedagogik yondashuvlar hamda faoliyatga asoslangan metodlarning samaradorligi yoritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *maktabgacha ta'lim, milliy tarbiya, axloqiy fazilatlar, xalq an'analari, urf-odatlar, pedagogik metodlar, ma'naviyat.*

Maktabgacha yosh inson shaxsining shakllanishida eng muhim davrlardan biri hisoblanadi. Shu davrda bola o'zining ilk ijtimoiy tajribasini egallaydi, xulq-atvor me'yorlari, odob qoidalari va axloqiy qarashlari shakllanadi. Tarbiya jarayonida milliy an'ana va qadriyatlarga tayanish, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini boyitish va milliy o'zlikni anglashiga xizmat qiladi. Xalqning urf-odatlari, an'analari, og'zaki ijodi va buyuk ajdodlarimiz merosi orqali bola mehr-oqibat, halollik, sabr-toqat, kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik kabi insoniy fazilatlarni o'zlashtiradi. Shu bois maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiya jarayonini milliy tarbiya an'analari asosida tashkil etish bugungi kunda pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Maktabgacha yosh davri bolaning ma'naviy-axloqiy shakllanishida poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli tarbiya jarayonida milliy qadriyat va an'analarga tayangan holda axloqiy fazilatlarni singdirish alohida ahamiyat kasb etadi. Milliy tarbiya an'analari xalqimizning asrlar davomida sinovdan o'tgan tajribasi bo'lib, ular bola shaxsini shakllantirishda, uni jamiyat hayotiga tayyorlashda beqiyos ahamiyatga ega.

Milliy an'ana va urf-odatlar bolalarda insoniy fazilatlarni shakllantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Masalan, mehmondo'stlik odati orqali bola kattalarni hurmat qilish,

mehr-oqibatli bo‘lishni o‘rganadi; Navro‘z, Mustaqillik bayrami kabi umumxalq bayramlari orqali esa birdamlik, vatanparvarlik, tabiatga ehtirom tuyg‘ulari tarbiyalanadi. Oilaviy marosimlarda – beshik to‘yi, sunnat to‘yi, nikoh marosimlarida esa bola odoblilik, izzat-hurmat, mas’uliyat kabi qadriyatlarni amalda ko‘radi va o‘zlashtiradi.

Xalq og‘zaki ijodi ham axloqiy tarbiyada katta rol o‘ynaydi. Ertaklarda ezgulik va yovuzlik to‘qnashuvi orqali bolalarda yaxshilikni qadrlash, yomonlikdan yiroq bo‘lish tuyg‘ulari shakllanadi. Maqol va matallar esa qisqa va mazmunli iboralar orqali hayotiy saboq beradi. Masalan, “Yaxshilik qil, suvga sol, baliq bilmasa ham Xoliq bilar” degan maqol bolaga halollik va saxovatni, “Odob – inson ziynati” degan maqol esa odoblilikning inson hayotidagi o‘rni naqadar muhimligini anglatadi.

Buyuk mutafakkirlarimizning merosi ham tarbiya jarayonida qo‘llanishi mumkin. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida axloqiy tarbiyaning inson kamolotidagi o‘rni haqida chuqur fikr bildirgan. Alisher Navoiyning asarlarida ham halollik, insonparvarlik, sabr-toqat kabi sifatlar targ‘ib etilgan. Bu merosni bolalar ongiga sodda shaklda singdirish ularda milliy g‘urur va axloqiy qarashlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Axloqiy fazilatlarni shakllantirishda pedagogning shaxsiy namunasining ahamiyati juda katta. Bola tarbiyachining xulq-atvoriga, so‘z va amallariga taqlid qiladi. Shu bois tarbiyachi milliy qadriyatlarga tayanib, ularga mos odob va axloqiy fazilatlarni o‘zida namoyon qilishi zarur. Shuningdek, u bolalarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishda turli usullardan foydalanishi mumkin. Bunga o‘yin metodlari, teatrlashtirilgan sahnalar, ijodiy mashg‘ulotlar, xalq qo‘shiqlari va milliy o‘yinlardan foydalanish kiradi.

Masalan, “Mehribonlik” mavzusida tashkil etilgan rolli o‘yin orqali bolalar bir-biriga yordam berish, do‘stiga e’tiborli bo‘lishni o‘rganadilar. Teatrlashtirilgan ertak sahnalari esa ularda rostgo‘ylik, jasorat, halollik kabi fazilatlarni singdiradi. Shuningdek, milliy o‘yinlar – “Arqon tortish”, “Chillak”, “Oq terakmi – ko‘k terak” kabi o‘yinlar bolalarda jamoada hamkorlik, do‘stlik, intizomlilikni rivojlantiradi.

Axloqiy fazilatlarni shakllantirish jarayonida oilaning o‘rni ham beqiyosdir. Bola birlamchi tarbiyani oilada oladi va ota-onaning xatti-harakatlaridan ibrat oladi. Shuning uchun ota-onalar ham bolani milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda faol ishtirok etishlari kerak. Maktabgacha ta’lim muassasasi va oila o‘rtasidagi hamkorlik bola tarbiyasida yaxlitlikni ta’minlaydi.

Shuningdek, jamiyat, mahalla va turli jamoat tashkilotlari ham tarbiya jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ular tomonidan o‘tkaziladigan milliy bayramlar, marosimlar, madaniy-ma’rifiy tadbirlar bolalarda milliy qadriyatlarga hurmat ruhini kuchaytiradi. Shu tariqa oila,

bog‘cha va jamiyatning uzviy hamkorligi orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy fazilatlar samarali shakllantiriladi.

Milliy tarbiya an‘analari bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishning eng muhim manbasi hisoblanadi. Urf-odatlar, xalq og‘zaki ijodi, milliy bayramlar, oilaviy marosimlar va buyuk ajdodlarimiz merosi orqali bolalarda halollik, odoblilik, mehr-oqibat, sabr-toqat, vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlar shakllanadi. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun pedagogning shaxsiy namunasi, metodik mahorati, milliy qadriyatlarga asoslangan interfaol metodlar va o‘yinlardan foydalanishi zarur. Shuningdek, oila, maktabgacha ta’lim muassasasi va jamiyatning hamkorligi tarbiya samaradorligini oshiradi. Demak, milliy tarbiya an‘analari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan axloqiy tarbiya kelajakda barkamol, vatanparvar va ma’naviy yetuk shaxsni shakllantirishning ishonchli poydevoridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. *Turkiy guliston yoxud axloq*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
2. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Rasulov B., Jo‘rayev M. *Maktabgacha ta’lim pedagogikasi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
4. G‘afforova T. *Bolalarda axloqiy tarbiyaning shakllanishi*. – Toshkent: Ilm ziyo, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
6. Khasanova, M. (2024). *USING MODERN INNOVATIVE INFORMATION TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATION*. Nordic\_Press, 3(0003).
7. Xasanova, M. U. (2024). *Innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini oshirish*. Modern Science and Research, 3(1), 1-2.
8. Khasanova, M. (2024). *Integration of modern educational technologies into the educational process for instilling national values in preschool educational institution children*. Nordic\_Press, 3(0003).
9. Khasanova, M. (2024). *THE ROLE OF ETHNOMUSICOLOGY IN PRESCHOOL EDUCATION: CHALLENGES AND SOLUTIONS IN MUSICOLOGY*. Nordic\_Press, 5(0005).
10. Khasanova, M. (2024). *MAKTABGACHA TA’LIM BOLANING IJTIMOIIY VA O‘QUV FAOLIYATIDA MUVAFFAQIYATGA ERISHISHDA MUHIM DAVR*. Nordic\_Press, 3(0003).

11.Khasanova, M. (2024). *KITABI SEVIN ÇOCUKLAR!.* Nordic\_Press, 3(0003).

12.Khasanova, M. (2025). *DEVELOPING MANAGEMENT COMPETENCIES IN PRESCHOOL EDUCATION WITHIN THE PUBLIC ADMINISTRATION SYSTEM.* Nordic\_Press, 6(0006).

13.Qizi, X. M. S. (2024). *O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda maktabgacha yoshdan ekomadaniyatni shakllantirish asoslari.* Science and Innovation, 3(Special Issue 28), 1084-1087.

14.Khasanova, M. (2025, iyun 11). *The Formation of Ethnocultural Competence in Preschool Children Through National Values and Oral Folk Art.* **Zamonaviy ta’lim tizimi taraqqiyotida integrativ yondashuv: muammolar, yechimlar va istiqbollari (ZTTTIYMYI-2025)**, Tashkent.